

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**



*Ro‘yxatga olindi: № BD 60211300-1.22*

**XOR BILAN ISHLASH USLUBIYOTI**

**FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** *200 000 — San‘at va gumanitar fanlar*

**Ta‘lim sohasi:** *210 000 — San‘at*

**Ta‘lim yo‘nalishi:** *60211300 — Dirijyorlik: akademik xor dirijyorligi*

**TOSHKENT – 2025**

<b>Fan/modul kodi</b> XIU1104	<b>O‘quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestrlar</b> 8	<b>ECTS – Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Xor bilan ishlash uslubiyoti</b>	<b>60</b>	<b>60</b>	<b>120</b>
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>“Xor bilan ishlash uslubiyoti” fanning asosiy maqsadi — havaskor, o‘quv, professional xor jamoalari uchun Dirijyor, xormeyster sifatida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlashdir. Xor jamoalari bilan ishlash tamoyillari, usullari va shakllarining umumiy ko‘rinishini shakllantirish; bitiruvchi talabalarda tashkiliy, pedagogik va xor bilan ishlashga tayyorlash. Xor san’ati, ijrochiligi va pedagogikasidagi tajribalarning nazariy-metodologik tushunchalarini umumlashtirish</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – Talabalarning musiqiy dunyoqarashlarini kengaytirish, ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o‘rganish, taniqli xor san’at ustalarining tajribalarini umumlashtirish. Talabalarning kelajakdagi musiqiy va ma’rifiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan kasbiy fazilatlarni rivojlantirish. Talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan xormeysterlik fazilatlarni rivojlantirish. Vokal va xor san’ati nazariyasining yangi yo‘nalishlarini ochib berish, xorda ijrochilik jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etilishi, ijro texnikasi, xorni boshqarish usullari, dirijyor va xor artistlari o‘rtasida ijodiy muloqot uslublari, o‘quv-uslubiy va konsert repertuarini tanlash. Vokal-xor va musiqiy-pedagogik tafakkurni rivojlantirish. Xor jamoasi bilan ishlashda vokal va xor mahoratini oshirish, xor jamoasini boshqarish uslubini o‘zlashtirish, xor jamoalari uchun repertuar va dasturlarni tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Xormeysterlik tafakkurini shakllantirish.</p> <p><b>II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlar)</b> <b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</b></p> <p><b>I BO‘LIM. DIRIJYOR-XORMEYSTERNING VOKAL-XOR ISHLARINING ASOSLARI</b></p>			

**1-mavzu: Xor jamoa rahbarini kasbiy pedagogik qobiliyat va shaxsiy fazilati. Xor jamoasining tashkiliy-uslubiy asoslari.**

Xor jamoa rahbarini kasbiy o‘ziga xosligi — faoliyatlar majmuasidir. Xor jamoasiga rahbarlik qilish uslublari. Ijodiy jamoani tashkil etish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish. Jamoa bilan ishlashda pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llash. Mamlakatimiz va chet elda dong‘i chiqqan xor jamoalari, xormeysterlar faoliyati bilan tanishtirish. Mahalliy an‘analarga asoslangan ijrochilik harakat tarzlarining farqini aytib berish.

**2-mavzu. Xor jamoasi bilan vokal-intonatsion ishlash jarayonlari.**

Nafas. Tovush hosil qilish. Tovush hujumi. Ovoz yurgizish. Shtrixlash ovoz qizdirishning asosiy masalalari: jamoaning vokal eshitish qobiliyatini sozlash, uni ishchi holatga keltirish, asosiy vokal-xor malakalarini shakllantiruvchi mashqlar ustida ishlash. Ovoz sozlashning tamoyillari: doimiylik, tizimlilik va ketma-ketlik. Ovoz qizdirish uchun mashqlar tanlash: ularning maqsadi va masalalari haqida batafsil tushuncha berish, fortepianoda xromatik gammalar misolida (yuqoriga va pastga) ko‘rsatish.

**3-mavzu: Xor jamoasi bilan tanlangan asarning diksiyasi va she‘riy matn.**

Diksiya malakalari. Xor ijrosida orfoepiya o‘rni. So‘z va musiqaning o‘zaro bog‘liqligi. Orfoepiya qoidalari. Bo‘g‘in ko‘chirish usullari, Artikulyatsiya asosiy qoidalari va usullari, unli va unsiz tovushlar ahamiyati va bo‘g‘inlarga to‘g‘ri urg‘u berish. Ijro paytida she‘riy matnni ifodaviy, ma‘no mohiyatiga ko‘ra kuylash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Adabiy matnning temp, ritm, faktura va boshqa ifoda vositalari orqali xarakterining shartlilikligi. Xor asarlarida boshqa tillardagi matnlar bilan ishlash o‘ziga xosligi.

**4-mavzu: Xor sadosining vositalari ustida ishlash usullari.**

Metr va ritm munosabatlarini murakkablashuvi tufayli ansambl qiyinchiliklari. Metroritmik ansambl ustida ishlash usullari. Ijro qilinadigan asarni temp va uslub, temp va janrning o‘zaro bog‘liqligi. Agogika va uning qonuniyatlari. Agogik belgilarni jumlash, artikulyatsiya va dinamika bilan o‘zaro bog‘liqligi. Agogika va musiqa janrlari. Agogika va kompozitorning uslubi. Xorda agogika ustida ishlash usullari. Tembr ansamblning xordagi vokal

ishiga bog‘liqligi. Tembr va artikulyatsiya. Harakatsiz nyuanslarga ovozlarni tekislashtirish. Ansamblni harakatchan nyuanslarda tuzilishi. Dinamikani tessitura bilan o‘zaro bog‘liqligi. Fakturali ansamblni turli xillar bilan ishlashning xususiyatlari.

### **5-mavzu: Xor partiturasida ish olib borish va repetitsion ishga tayyorgarlik.**

Asarni mustaqil ravishda o‘rganish, xor partiturasini tahlil qilish. Ijrochilik (interpretatsiyali) reja tuzish. Xor bilan ish jarayonini rejalash. Xor jamoasi ishida nota partiya(partitura)larni ahamiyati va xizmati, ularning oldindan diqqat bilan tayyorlash. Xor repetitsiyalarni tayyorlash va o‘tkazishning xususiyatlari: jamoani ijrochilik imkoniga qarab va qo‘yilgan vazifalarga bog‘langan holda, repetitsion ishini rejalashtirish. Repetitsion jarayonining asosiy bosqichlari: jamoani asar bilan tanishuvi, texnik tomondan asarni o‘rganib olish, badiiy jihatidan asar ustida ish olib borish. Asarni o‘rganishning uslub va usullar. Asarni o‘rganish vaqtida turli yordam beruvchi usullarni qo‘llash (taktlash, ovoz yoki fortepianoda ko‘rsatish orqali, og‘zaki tushuntirish va h.k.). Dirijyorni repetitsion ishida maxsus badiiy ta’sir ko‘rsatadigan usullar bilan foydalanishi.

## **II BO‘LIM. BOLALAR, HAVASKORLIK, O‘QUV VA PROFESSIONAL XORLAR BILAN ISHLASH USLUBLARI**

### **6-mavzu. Bolalar xor bilan ishlash uslubiyoti**

Bolalarning musiqiy-estetik rivojlanishi xor ijrochiligi vositasi orqali shakllanishi. Turli xorlar bilan ishlash uslubiyoti. Bolalarda musiqiy-ijrochilik qobiliyatini aniqlash. Bola ovozining yoshiga ko‘ra tavsifi.

Bolalar vokal va xor ta’limining xususiyatlari, nazariyasi va metodikasi. Bolalarda musiqiy eshitish va ritm hissini rivojlantirish. Vokal va xor mashg‘ulotlari. Polifonik qo‘shiqchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Polifonik kuylashning garmonik eshitish va garmonik sezgining rivojlanishiga ta’siri. Bolalar xorida mashg‘ulotlar jarayoni. Musiqiy asar bilan tanishish. Yangi ish haqida suhbat. Xor uchun tanlangan asarni o‘rganish usullari

Xor repertuarini tanlash uslubiy tamoyillari, repertuar tanlash bosqichlari, bolalar yoshi va imkoniyatlarini hisobga olish. Konsert dasturlarini shakllantirish. Bolalar xorida psixologik trening(mashg‘ulot)lar ahamiyati.

### **7-mavzu. Havaskor, o‘quv va professional xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti**

O‘quv xori bilan ishlashning asosiy masalalari. Turli kompozitorlik maktablari repertuari bilan tanishish va badiiy did tarbiyasi.

Xor jamoalari faoliyatining tashkiliy-metodik asoslari. Zamonaviy sharoitlarda havaskor xor guruhini tashkil etish bosqichlari.

Xor jamoalarining turiga qarab, mashg‘ulot jarayonlarining xususiyatlari. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan professional, havaskorlik va o‘quv xorlari bilan tanishish, poytaxtda joylashgan xor jamoalarining xormeysterlar faoliyati bilan yaqindan tanishish. Ularning ishlash tamoyillarini va har bir xorning yo‘nalishi ijro imkoniyatlarini bilish.

### **8-mavzu: Xor jamoalari uchun ijodiy repertuar tanlash bosqichlari.**

Xor jamoasini unumdorlik faoliyati uchun repertuarining ahamiyati. Repertuar vazifalari: xor qatnashchilarni musiqiy tafakkurini rivojlantirish va mukammallashtirish, vokal-xor malakalarini shakllantirish, xor xonandalarni ma’naviy-estetik jihatidan tarbiyalanishi.

Repertuar tanlash tamoyillari: asarlarni adabiy-musiqiy materiallarni badiiy jihatidan ahamiyati; vokal-xor asarlarni mazmuni, shakli va musiqiy ifoda vositalaridan foydalanish mumkinligi; repertuarni asta-sekin murakkablashuvi. Xor repertuarida a capella va cholg‘u jo‘rligidagi asarlarni ahamiyati. Repertuarga o‘zbek va xorijiy klassik asarlar, xalq qo‘shiqlar, zamonaviy kompozitorlar asarlarini — turli mazmundagi, janr, ifoda vositalaridagi asarlar kiritilishi kerakligi. Ijodiy dastur tanlash xususiyatlari

### **9-mavzu. Xor konsertlarini tashkil etish va o‘tkazish.**

Konsert turlari: tematik, monografik, aralash, jamoaning ijodiy hisoboti. Konsert dasturini tuzish. Xor uchun moslashtirish, sahna harakatining ayrim elementlari. Konsert jarayonidan oldingi asosiy jihatlar. Konsert oldidan xorning hissiy va psixologik kayfiyati. Sahna va sahna harakatlariga kirish. Ohangni o‘rnatish. Tajribasiz ijrochilar uchun konsertda yuzaga keladigan odatiy noqulayliklar.

### **10-mavzu. Uslubiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar bilan tanishish**

Uslubiy adabiyotlar va qo‘llanmalarni ko‘rib chiqish, vokal va xor sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, ovoz qo‘yish usullari bilan tanishish.

**Xor bilan ishlash uslubiyoti** fanidan seminar va amaliy mashg‘ulotlar o‘quv rejada ko‘rsatilgan turi bo‘yicha o‘tkaziladi.

**Seminar mashg‘ulotlar** uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xor jamoa rahbarini kasbiy pedagogik qobiliyat va shaxsiy fazilati. Xor jamoasining tashkiliy-uslubiy asoslari.
2. Xor jamoasi bilan vokal-intonatsion ishlash jarayonlari.
3. Xor jamoasi bilan tanlangan asarning diksiyasi va she’riy matn.
4. Xor sadosining vositalari ustida ishlash usullari.
5. Xor partiturasida ish olib borish va repetitsion ishiga tayyorgarlik.
6. Bolalar xori bilan ishlash uslubiyoti.
7. Havaskor, o‘quv va professional xorlar bilan ishlash uslubiyoti.
8. Xor jamoalari uchun ijodiy repertuar tanlash bosqichlari.
9. Xor konsertlarini tashkil etish va o‘tkazish.
10. Uslubiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar bilan tanishish

**Amaliy mashg‘ulotlar** uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Berilgan asarlar tahlili misolida vokal-intonatsion qiyinchiliklarni aniqlash va yechim metodlarni topish. (Intonatsion qiyinchiligini aniqlash va yechimini topish. Xor partiyalarda unison ustidagi ishni vositalari. Melodik intervallar, major va minor tovushqatorlarni intonatsiya qoidalari.)

2. Berilgan asarlar tahlili misolida orfoepik va talaffuzli qiyinchiliklarini aniqlash va yechim metodlarni topish. (Kuylash jarayonida adabiy matn ma’nosini va o‘ziga xosligini, ma’noli, savodli va so‘zlarni aniq talaffuz qilish.)

3. Berilgan asarlar tahlili misolida xor sadosi vositalari ustida ish olib borish. (Ansamblli va vokal-xor qiyinchiliklarini aniqlash va ularning ustida ishlash usullari. Sozni xor vokal malakalaridan bog‘liqligi (nafas, tovush hosil bo‘lishidan, vokal pozitsiyasidan).

4. Turli janr va uslublardagi berilgan xor asarlarni mustaqil ravishda o‘rganish va to‘liq tahlilini topshirish, repetitsiya ishlariga tayyorlov va o‘tkazish shakl, usul va yo‘llarini ko‘rsatish.

5. Turli yosh guruhlarining bolalar xoriga asosiy vokal va xor mahoratini shakllantiruvchi turli mashqlarni tayyorlash va ko‘rsatish, ularning maqsadga muvofiqligini tushuntirish.

6. Turli yosh guruhlaridagi bolalar xor guruhlarini uchun repertuarlar tanlovi (konsert dasturi)

7. O‘quv, havaskor va professional xor jamoalari uchun asosiy vokal va xor mahoratini shakllantiruvchi turli mashqlarni tayyorlash va ko‘rsatish, ularning maqsadga muvofiqligini tushuntirish.

8. O‘quv, havaskor va professional xor jamoalari uchun ijro dasturini tanlash

9. Bolalar xor jamoalarining ishlash jarayonlari va ijodiy konsertlarining tahlili (Bolalar musiqa va san'at maktablari, shuningdek, "Bulbulcha", "Tomosha", "Tantana" va boshqa ansambllar misolida).

10. Havaskor, o'quv va professional xor jamoalarining ishlash jarayonlari va ijodiy konsertlarining tahlili Davlat simfonik orkestri qoshidagi xor jamoasi, MTS xor jamoasi, Xor Kapellasi xor jamoasi, "O'smir-yoshlar" Xor jamoalari misolida)

### **III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni**

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (maqolalar)dagi fanlarga oid bo'limlar va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

1. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun uslubiy adabiyotlarni o'rganish;
2. Nazariy bilimlarni mustahkamlash, o'quv materialini o'rganish, olingan bilim va tajribalarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
3. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
4. Kasbiy vazifalarni belgilash va hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish va baholash;

	<p>5. Xormeysterlik kasbiga oid bilimni chuqurlashtirish va qiziqish hosil qilish maqsadida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar, xor guruhlarining konsertlarida qatnashish.</p>
U	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• xor san’atiga oid maxsus o‘quv- uslubiy va ilmiy-tadqiqot adabiyotlari;</li> <li>• xor jamoasi faoliyatini tashkil etish shakllari;</li> <li>• turli yoshdagi guruhlarda shaxsiyat orasidagi munosabatlar psixologiyasini;</li> <li>• xor guruhlari bilan ishlashning asosiy usullari, jamoa bo‘lib kuylash, xor jamoasi a’zolarini tinglash, mashg‘ulotlar o‘tkazish, konsert tadbirlarini tashkil etishni <b><i>bilishi kerak</i></b>;</li> <li>• o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash; Vokal va xor ishlari (nafas olish, sozlash, ansambl, nyuanlar va artikulyatsiya to‘g‘risida);</li> <li>• dirijyor-xormeysterlik faoliyatida mashg‘ulotlar va konsert faoliyatining o‘rni;</li> <li>• xor partitularining tahlilini ijrochilik uslubi asosida qo‘llash;</li> <li>• “Interpretatsiya” madaniyati <b><i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</i></b>;</li> <li>• turli yoshdagi xor jamoalari bilan ishlash jarayonlari, mashg‘ulotlarini tashkil qilish va rejalashtirish;</li> <li>• ijrochilik konsepsiyasida ijodkorlik vazifalarini shakllantirish;</li> <li>• muammolarni hal etishda samarali musiqiy-pedagogik usullarni qo‘llash; <b><i>malakalariga ega bo‘lishi kerak</i></b>.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob);</li> <li>• interfaol “Keys-stadi” texnologiyasi;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Mavzuga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘liq bilish, tahlil natijalarini aniq aks ettirish, o‘rganilayotgan jarayonlar va kurslarni mustaqil ravishda kuzatish.</p> <p>Xor jamoasida xor-vokal kuylash ko‘nikmasiga ega bo‘lish, turli xor jamoalari uchun</p>

ijodiy dastur shakllantirish. Oraliq va yakuniy nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda og‘zaki, test va amaliy topshiriqlar orqali o‘tkazilishi mumkin.

### **Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar .**

Talabalar bilimni nazorat qilish o‘quv rejaga muvofiq belgilangan.

Oraliq nazorat 8-semestrda, Yakuniy nazorat 8 semestrlarda o‘tkaziladi.

- Oraliq nazorati semestr davomida fan dasturining tegishli bo‘limi yakunlangandan so‘ng, talabalarning nazariy va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida og‘zaki savol-javob va amaliy topshiriqlar tarzida o‘tkaziladi.

- Yakuniy nazorat turi 8-semestr yakunida, semestr davomida o‘tilgan barcha mavzularni qamrab olib, talabalarning nazariy va amaliy bilim, ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini baholash maqsadida 2 ta savol va 1 ta amaliy topshiriqdan iborat bilet tortish nazorati o‘tkaziladi.

Biletlar:

1-nazariy savol

2-xor asar tahlili

3-amaliy topshiriq (xor bilan ishlash uslubiyotiga oid jarayondan amaliy topshiriq).

6.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Kadirova S.P.- Xorshunoslik T. “Musiqqa” 2019 (Darslik)
2. Kadirova S.P. Xorshunoslik bo‘yicha boshlang‘ich – T. 2015
3. Т. П. Вишнякова, Т. В. Соколова. Практика работы с хором. — 3-е изд., стер.- Санкт-Петербург: Лань : Планета музыки, 2019.
4. Sharafiyeva N.S. “O‘zbekiston taronalari”. T.2014
5. Kadirova S.P.. Zamonaviy xor musiqasida fakturaning o‘ziga xos xususiyatlari. “Musiqqa” 2012 y.
6. Живов В. Л. Хоровое исполнительство : Теория. Методика. Практика : учеб. пособие для вузов. – М. : Владос, 2003. – 272 с.
7. Sharafiyeva N.S. “Xor sinfi”. T., 2005.
8. Г.П.Стулова. Теория и практика работы с детским хором. Владос, 2002
9. Казачков С. От урока к концерту / С. Казачков. – Казань, 1990.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60. 28.01. 2022
2. Sh.M.Mirziyoyev. Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-4730 26.05. 2020
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada

	<p>rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PQ-4038 28.11.2018</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. O'zbekiston va jahon kompozitorlarining xor asarlari notasi. 1958-2022.</li> <li>5. Борисова Е.С. Дирижер-хормейстер: психология профессионального и личностного становления / Е.С.Борисова // Музыкальная психология и психотерапия. — 2008.</li> <li>6. С.Е.Оскина, Д.Г.Парнес «Музыкальный слух». Влад. 2003.</li> <li>7. М.С.Осенева, В.А.Самарин. «Хоровой класс и практическая работа с хором».М 2003.</li> <li>8. Живов В.Л. Интерпретация хоровой музыки. – М., 1991</li> <li>9. А.Хакимова «Хор акапелла». Т.1992</li> <li>10.Ержемский – Психология дирижёра М.2012</li> <li>11.Е.Соколов. «Работа с хором». М., 1967.</li> <li>12.Виноградов К.П. Работа над дикцией в хоре. – М., 1957.</li> <li>13.И.Тихонов «Хоровое сольфеджио». Казань 1975.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.notes.tarakanov.net">http:// www.notes.tarakanov.net</a></li> <li>2. <a href="https://ale07.ru/music/notes/song/chorus/chorus_notes.htm">https://ale07.ru/music/notes/song/chorus/chorus_notes.htm</a></li> <li>3. <a href="http://www.imslp.org">http:// www.imslp.org</a></li> <li>4. <a href="http://www.operascores.ucoz.com">http:// www.operascores.ucoz.com</a></li> <li>5. <a href="http://www.vnotke.com">http://www.vnotke.com</a></li> <li>6. <a href="http://www.classicalconnect.com">http://www.classicalconnect.com</a></li> <li>7. <a href="http://www.classic-music.ru">http://www.classic-music.ru</a></li> <li>8. <a href="http://www.krugosvet.ru">http://www.krugosvet.ru</a></li> <li>9. <a href="http://www.mus-info.ru">http:// www.mus-info.ru</a></li> <li>10. <a href="http://www.wikipedia.org">http:// www.wikipedia.org</a></li> </ol>
7.	<p><b>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» 08 dagi 1 — sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</b></p>
8	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>          O'.I.Shokarimov — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida katta o'qituvchisi          G.Sh.Avxadiyeva — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida katta o'qituvchi</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b>          S.P.Kadirova — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida professori          G.Sh.Mansurova — R.Glier nomidagi RIMM "Xor dirijyorligi" bo'limi boshlig'i,          dotsent</p>



